

O'zbekiston Professional futbol ligasi  
**BIRINCHI LIGA REGLAMENTI**  
bo'yicha kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar  
2023

**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE



Mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Professional futbol ligasi tomonidan tasdiqlangan.



**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

Birinchi liga ishtirokchilaridan 2 tasi qatnashchilar safidan chiqarilgani, shuningdek, yana 3 ta ishtirokchining umumiy ish faoliyati Liga talablariga javob bermaganidan kelib chiqib, "Birinchi liga reglamenti"ning 6-bobi quyidagicha tahrir qilinsin:

## 6-bob

### Birinchilik kubogi formati

6.1. Musobaqada Birinchi liganing 12 ta jamoasi ishtirok etadi va qur'a yordamida ular 4 ta guruhga ajratib olinadi.

6.2. Musobaqa qur'asi oldidan jamoalar Birinchi ligada egallagan o'rnidan kelib chiqib, 3 ta savatga ajratib olinadi. Bunda bir savat jamoalarining bir guruhda ishtirok etmasligi ta'minlanadi.

6.3. Guruh bosqichida jamoalar uy-safar tizimida o'zaro ikki martadan — jami 4 ta uchrashuvda kuch sinashadi. Guruhlarda o'rinlar "Birinchi liga reglamenti"ning 7-bobi asosida tartibga solinadi.

6.4. Guruh bosqichi yakuniga ko'ra o'z guruhida g'oliblikni qo'lga kiritgan jamoalar 1/2 final yo'llanmasiga ega chiqadi. Qolgan ikkitadan jamoa musobaqadagi ishtirokini to'xtatadi.

6.5. 1/2 final bosqichi uy-safar tizimida o'tkaziladi va ikki o'yin natijasiga ko'ra g'olib jamoa final yo'llanmasini qo'lga kiritadi.

6.6. 1/2 final bosqichida safarda urilgan gollar hech qanday ustunlik bermaydi. Ikki o'yin natijasiga ko'ra urilgan va o'tkazib yuborilgan gollar sonida tenglik yuzaga kelsa, navbat qo'shimcha taymlarsiz penaltilar seriyasiga beriladi.

6.7. Final uchrashuviga Toshkent shahri mezbonlik qiladi. Bunda asosiy vaqtda g'olibni aniqlashning imkoni bo'lmasa, navbat qo'shimcha taymlarsiz penaltilar seriyasiga beriladi.

6.8. "Birinchi liga reglamenti"ning 5.5-bandidan kelib chiqib, musobaqa g'olibi Pro ligaga o'tish o'yinida Birinchi liga g'olibiga qarshi maydonga chiqadi. Mazkur bellashuvga Toshkent shahri mezbonlik qiladi.

6.7. "Birinchi liga reglamenti"ning 5.5-bandi hamda mazkur bobning 6-bandi umumlashgan holda Birinchi liga g'olibi va Birinchilik kubogi g'olibi o'zaro Pro liga yo'llanmasi uchun kurash olib boradi. Bunda g'olib jamoani 90 daqiqa ichida aniqlashning imkoni bo'lmasa, har biri 15 daqiqadan iborat ikki qo'shimcha taym belgilanadi. Shunda ham g'olib aniqlanmasa, navbat penaltilar seriyasiga beriladi.